

**MINTAQANI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING RO‘LINI OSHIRISH**

Xurramov O‘lmasjon Nizomiddin o‘g‘li

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Ro‘zieva Dilobar Isomjonovna

Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrası dotsenti,

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti magistri

Annotatsiya: Ushbu tezisda, mintaqani barqaror iqtisodiy rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ro‘lini oshirish, haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: bozor iqtisodiyoti, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, jahon bozorlari, ishbilarmonlik muhiti.

Annotation: This thesis talks about increasing the role of small business and private business entities in the sustainable economic development of the region.

Keywords: market economy, small business, private entrepreneurship, entrepreneurial activity, world markets, business environment.

Аннотация: В данном тезисе говорится о повышении роли малого бизнеса и субъектов частного предпринимательства в устойчивом экономическом развитии региона.

Ключевые слова: рыночная экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, предпринимательская деятельность, мировые рынки, деловая среда.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning bosh maqsadi - kuchli, raqobatbardosh milliy iqtisodiyotni yaratish va shuning hisobidan aholi farovonligini muntazam oshirib borishdir. Shu sababli davlatimiz rahbari zamonaviy bozor mexanizmlari, ulaming samaradorligini ta‘minlash va shu asosda mamlakatimizda barqaror bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim shartiga aylangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiyotni mustahkamlash, har tomonlama rivojlantirib borish, iqtisodiyotni xususan bozor munosabatiga o‘tishni tezlashtiruvchi eng asosiy yo‘llardan biri bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisoblanadi. Shuning uchun ham tadbirkorlikni rivojlantirishga, uni davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishi, xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish, uni rag‘batlantirishga bag‘ishlangan bir qancha qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy islohotlarning tub negizini tadbirkorlik, omilkorlik va ishbilarmonlik xislatlarisiz tasavvur etish qiyin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanayotgan davlatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lgan kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivodlantirish uchun hukumat tomonidan ko‘plab imtiyozlar berildi. Shu imtiyozlardan kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari samarali foydalanib, tez sur‘atlar bilan tadbirkorlar soni va mahsulot yetishtirish hajmi ortib bormoqda.

Erkin bozor munosabatlarining keng ravnaq topishi kishilar hayotida, ularning turmush tarzida, ma‘naviy va hayotiy ko‘nikmalarida namoyon bo‘lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlanishi nafaqat iqtisodiyotni muttasil rivojlanishi, xo‘jalik aloqalarini tuzatish, raqobatni rivojlantirish va iste‘mol bozorini to‘ldirish bilan bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy maqsadlarni ham ta‘minlamoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining YA1M ulushining ortishigi korxonalarning sonining ortishi ham ijobiy ta‘sir o‘kazadi. Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan zamonaviy, diversifikatsiyalangan va kuchli raqobatga bardosh beradigan iqtisodiyotni shakllantirish yuzasidan ko‘rilayotgan chora-tadbirlar iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori sur‘atlari saqlanishini ta‘minlamoqda.

Respublikamizda qaror topgan qulay ishbilarmonlik muhitining huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy islohotlarning mantiqi va izchilligi, barcha soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish, jahon bozorlarida tez o'zgarib turgan sharoit iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada erkinlashtirishni taqozo etmoqda. Shu imtiyozlardan kichik biznes va tadbirkorlik subyektiari samarali foydalanishi natijasida tadbirkorlar soni va mahsulot yetishtirish hajmi ortib bormoqda.

Bundan tashqari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarga asosan biznes va tadbirkorlikning faoliyat sohaslarini rivojlantirishni rag'batlantirish, ularning huquqlari, majburiyatlari, mas'uliyatlari va manfaatlarini himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanganligi bo'ldi. Bu o'z navbatida, kichik biznes bilan shug'ullanuvchi ishbilarmonlarning ishchanligini yanada faollashtirishga keng imkoniyat yaratdi. Milliy iqtisodiyotimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining ortib borayotgani ichki bozorni raqobatbardosh va sifatli tovarlar bilan to'ldirish, zamon talablarini inobatga olgan holda xizmatlar ko'rsatish sohasini kengaytirish, eksport tovarlari tarkibida jahon bozorlarida xaridorgir, sifatli mahsulotlarni ko'paytirish, avvalo yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadi hamda ijaravonligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'ldi. Respublikamizda qaror topgan qulay ishbilarmonlik muhitining huquqiy asoslarini muntazam takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada hayotga tatbiq etilayotgan iqtisodiy islohotlarning mantiqi va izchilligi, barcha soha va tarmoqlarni jadal rivojlantirish, jahon bozorlarida tez o'zgarib turgan sharoit iqtisodiyotni boshqarish tizimini yanada erkinlashtirishni taqozo etmoqda. Shu imtiyozlardan kichik biznes va tadbirkorlik subyektiari samarali foydalanishi natijasida tadbirkorlar soni va mahsulot yetishtirish hajmi ortib bormoqda. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati rivojlanishiga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi, ularning huquqiy va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishning samarali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yaratilgan.

Kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgani holda uning taraqqiyotini ta'minlash, milliy iqtisodiyotdagi salmog'ini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ularni taraqqiy toptirishda mazkur subyektlarning bugungi kun talabi darajasidagi

zamonaviy texnika va texnologiyalardan samarali foydalanish darajasiga tayanilishiga erishish lozim. “Buning uchun ularni rivojlantirishning yangi manbalari, ham chet el investitsiyalarini keng jalb qilish hisobiga, ham ichki manbalar, bank kreditlari hisobiga doimo kashf etib borilishi darkor”. Bu siyosatning asosiy maqsadi, nafaqat, kichik biznes subyektlarining miqdor jihatdan o‘shini ta’minlash, balki ularning faoliyat samaradorligini oshirishdan iboratdir. Mazkur jarayonlarda ularni imtiyozli asoslarda kreditlash eng asosiy bo‘g‘in bo‘lib maydonga chiqadi. Bunda kichik biznes subyektlarini kreditlash markazida tijorat banklarining ular bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlari o‘rin egallaydi. Mazkur munosabatlarning uzoq muddatli jarayonlar negiziga asoslanishi kichik biznes investitsiya loyihalarini kreditlash tizimi shakllanishiga imkon beradi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning 13 foizini tashkil etadi, mamlakatimizda ish o‘rinlarining 14 foizi, yalpi ichki mahsulotning 58 foizi ushbu tarmoqda yaratilmoqda. Taqqoslash uchun, Rossiya Federatsiyasida bu ko‘rsatkich mos ravishda 13% va 14%, Evropa Ittifoqida esa 18% va 20% ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda kichik korxonalarining ulushi umumiy korxonalar sonining 7-9 foizini, iqtisodiy ko‘rsatkichlari esa o‘rtacha 26 foizni tashkil etadi. Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar sonida kichik o‘rta biznesning ulushi 14 foizni, yuridik shaxs maqomiga ega kichik korxonalar 50 foizni tashkil etadi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyatining asosiy ulushini kichik biznes tashkil etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, kichik biznesning (mikro, kichik, o‘rta) Yevropa Ittifoqi yalpi ichki mahsulotidagi ulushi o‘rtacha 60% ga proportsionaldir.

Xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini ko‘paytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3,3 trillion so‘mlik xomashyo va materiallar sotib olindi, o‘sh 6,5 foizni tashkil etdi. Bitimlarning 95 foizi birja savdolariga to‘g‘ri keldi Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birja orqali sotish hajmi 18 foizga o‘sh, 1,4 trillion so‘mga etdi. Birjada tuzilgan bitimlarning umumiy hajmida tadbirkorlar va kichik biznes subyektlarining hissasi o‘tgan yilda 66 foizni tashkil etgan bo‘lsa, joriy yilda bu ko‘rsatkich 8 foizga ko‘tarilgani kuzatildi. Jahonda

davom etayotgan iqtisodiy inqirozga qaramay, O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlari ta‘minlanayotganligi qayd etildi. Mamlakatimiz bugungi kunda iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlar orasida jahonda beshinchi o‘rinni egallab turganligi va bu xalqaro hamjamiyat va xalqaro moliya institutlari tomonidan munosib ravishda yuqori baholanmoqda. Joriy yilning 9 oyi yakunlari bo‘yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga o‘tdi.

Xulosa

Bugungi kundagi asosiy vazifa mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikning raqobatbardoshligini rivojlantirishni rag‘batlantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish bo‘lsa, boshqa tomondan unga moddiy va moliyaviy resurslar kiritish ko‘zda tutiladi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash oqilona dotatsiyalar, soliq solish, kreditlash, sug‘urtalash va investitsiyalashdagi imtiyozli tartiblar va hokazolar shaklida namoyon bo‘lishi kerak.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning eng muhim vazifasi - kichik korxonalarga teng huquqlarni ta‘minlash, kichik va yirikroq korxonalar o‘rtasidagi xo‘jalik imkoniyatlari bo‘yicha farqni imkon qadar kamaytirish, O‘zbekiston xo‘jaligining bozor tizimini shakllantirishning bazaviy jarayonlarida kichik va yirik tadbirkorlikning eng maqbul nisbatini ta‘minlashdan iborat. Bu birinchi galda, raqobatli bozor musobaqasida teng huquqlilikni, faoliyat turini erkin tanlash sharoitida tadbirkorlik faoliyatini yuritishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning huquqlari va javobgarligini, imkoniyatlari va tavakkalchiligini aniq belgilashdir. Bunda ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik, siyosiy va boshqa qulay sharoitlar mavjud bo‘lsagina biznesni muvaffaqiyatli rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <<Tadbirkorlik to‘g‘risida>>gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O‘zbekiston, 1991.
2. <<Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida>>gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. T.: O‘zbekiston, 1995.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Ta‘lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida. 2010-yil 28 iyul.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Monopoliyaga qarshi ishlarni tartibga solish va raqobatni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 2010-yil 26 fevral, PF-4191-son.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi to‘g‘risida. 2010-yil 27 yanvar.

6. “Kichik biznes va tadbirkorlik” - U.P. Umurzakov, A.J. Toshboyev. Toshkent-2014.

7. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliaviy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish”- Obidov Mashhad Ismoiljon o‘g‘li maqolasi.

8. “Mintaqada aholi bandligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish usullari”- Yusufjonov Ravshanbek Namdu maqolasi.